



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 17 - aprel

VI-60-78-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 31-yanvardagi “Fermer xo‘jaligi yer maydonini maqbullashtirish va uni tugatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 22-son qarori ijrosi to‘g‘risida

Angor tumani hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari J.Po‘latovning O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 31-yanvardagi “Fermer xo‘jaligi yer maydonini maqbullashtirish va uni tugatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 22-son qaroriga asosan tumanda fermer xo‘jaliklari tomonidan shartnoma intizomi buzilishining hamda xo‘jalik faoliyati samarasiz yuritilishining aniqlangan holatlari asosida fermer xo‘jaligi yer maydonini maqbullashtirish va uni tugatish bo‘yicha ma‘ruzasini tinglab, bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Angor tumani Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Fermer xo‘jaliklari tomonidan shartnoma intizomi buzilishining hamda xo‘jalik faoliyati samarasiz yuritilishining aniqlangan holatlari asosida fermer xo‘jaligi yer maydonini maqbullashtirish va uni tugatish bo‘yicha Angor tumani hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari J.Po‘latovning ma‘ruzasi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda fermer xo‘jaliklari tomonidan xo‘jalik faoliyati samarasiz yuritilishi bo‘yicha aniqlangan holatlar asosida tuzilgan dalolatnoma, tuman Fermer dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari Kengashining xulosasi, tuman Kadastr agentligi, Irrigatsiya, Qishloq xo‘jaligi bo‘limlari tomonidan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlaridan maqsadli va samarali foydalanish holatlarini o‘rganish ma‘lumotnomalariga asosan tumandagi “Jabborova Pardaxol”, “Go‘zal Shirin Sabzavot Ekinlari”, “Bog‘i Issiq O‘lka”, “Humo-Muxammad Baraka”, “Xayrullo Ilg‘or” va “Uldon Iskandarova” fermer xo‘jaliklari yerdan maqsadsiz va samarasiz foydalangan ushbu fermer xo‘jaliklarini yer maydonlarini qonunchilikda belgilangan tartibda maqbullashtirish va ularni tugatish ma‘qullansin.

3. Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (J.Po‘latov), tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i (B.Jo‘rayev), aloqador mas‘ullar bilan birgalikda:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 31-yanvardagi 22-son qarori bilan tasdiqlangan “Fermer xo‘jaligining yer maydonini maqbullashtirish va uni tugatish tartibi to‘g‘risida” Nizom talablariga muvofiq tumandagi “Jabborova Pardaxol”, “Go‘zal Shirin Sabzavot Ekinlari”, “Bog‘i Issiq O‘lka”, “Humo-Muxammad Baraka”, “Xayrullo Ilg‘or” va “Uldon Iskandarova” fermer xo‘jaliklari tomonidan shartnoma intizomi buzilishining hamda xo‘jalik faoliyati samarasiz yuritilishining aniqlangan holatlari asosida yer maydonini uzoq muddatli ijaraga olish shartnomasini bekor qilish va fermer xo‘jaligini tugatish qonunchilikda belgilangan tartibda, mahalliy davlat hokimiyati organi tomonidan taqdim etiladigan da‘volar asosida, iqtisodiy sud qaroriga binoan amalga oshirilishini inobatga olsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi (X.Xudoyberdiyev) zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi



X.Xolmurodov